UDK: 002.1:326.04.01

TALABALAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA KREATIV YONDASHUVNING O‘RNI

Dehqonova Surayyo, *o‘qituvchi,*
E-mail: s.dehqonova@mail.ru
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarning o‘quv jarayonida kreativ fikrlashini rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar ko‘rib chiqiladi. Talabalarda noodatiy fikrlash va original yechimlar topish qobiliyatini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, fanlararo yondashuvlar hamda psixologik motivatsiyaning o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada tanqidiy va divergent tafakkurni rivojlantirishga yordam beruvchi ta’limiy muhitni yaratish, shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirish vositasi sifatida mustaqil tadqiqot faoliyatining ahamiyati alohida ta’kidlangan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные факторы, влияющие на развитие креативного мышления у студентов в процессе обучения. Раскрывается роль инновационных педагогических технологий, междисциплинарных подходов и психологической мотивации в формировании способности студентов мыслить нестандартно и находить оригинальные решения. Особое внимание уделено созданию образовательной среды, способствующей развитию критического и дивергентного мышления, а также важности самостоятельной исследовательской деятельности как средства формирования творческого потенциала личности.*

Annotation. *This article examines the key factors influencing the development of creative thinking among students in the educational process. It highlights the role of innovative pedagogical technologies, interdisciplinary approaches, and psychological motivation in fostering students’ ability to think unconventionally and generate original ideas. Special attention is given to the creation of an educational environment that supports the development of critical and divergent thinking, as well as to the significance of independent research activities as a means of enhancing students’ creative potential.*

Kalit so‘zlar: *kreativ tafakkur, innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon, motivatsiya, mustaqil ta’lim, ijodiy salohiyat.*

Ключевые слова: *креативное мышление, инновационные технологии, педагогический процесс, мотивация, самостоятельное обучение, творческий потенциал.*

Keywords: *creative thinking, innovative technologies, pedagogical process, motivation, independent learning, creative potential.*

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va intellektual iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri talabalar tafakkurini yangicha yo‘naltirish, ularda kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishdir. Chunki XXI asrda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun insondan nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki yangilik yaratish, muammolarga noodatiy yondashish, tezkor fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyati talab etiladi. Shu bois kreativ tafakkurni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalarining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Usullar. Kreativ fikrlash – bu shaxsning mavjud bilim, ko‘nikma va tajribalarini noodatiy tarzda uyg‘unlashtira olish, yangicha g‘oyalar yaratish hamda muammoli vaziyatlarga original va samarali yechim topish qobiliyatidir. U nafaqat tasavvur va fantaziyaga, balki mantiqiy tahlil, tanqidiy yondashuv va chuqur mushohadaga ham tayanadi. Kreativ fikrlash jarayonida inson mavjud qolip va stereotiplardan chiqib, masalaga turli nuqtayi nazardan qarashni o‘rganadi. Natijada esa yangilik, innovatsiya va ijodiy mahsul vujudga keladi[1].

Ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida tayyor bilimlarni o‘zlashtirishning o‘zi yetarli emas; balki olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish, yangi vaziyatlarga moslashtirish va mustaqil qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois o‘qituvchining innovatsion yondashuvi, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishi, muammoli vaziyatlar yaratishi hamda talabalarning faolligini rag‘batlantirishi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Interfaol metodlar – “aqliy hujum”, “klaster”, “debat”, “rol o‘ynash”, “case-study” kabi usullar – talabalarni fikrlashga, izlanishga va hamkorlikda ishlashga undaydi. Bunday metodlar orqali talaba nafaqat bilim oladi, balki o‘z fikrini asoslash, boshqalarning qarashlarini tahlil qilish va muqobil yechimlarni solishtirish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Bu esa ijodiy va tanqidiy tafakkurning uyg‘un shakllanishiga xizmat qiladi[2].

Fanlararo integratsiya ham kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash talabaning dunyoqarashini kengaytiradi, muammoga kompleks yondashish imkonini beradi. Masalan, texnika va san’at, matematika va iqtisod, biologiya va ekologiya o‘rtasidagi aloqalarni ko‘ra olish yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, ta’lim muassasasida ijobiy psixologik muhit yaratish ham muhimdir. Talaba o‘z fikrini erkin bayon eta oladigan, xatodan qo‘rqmaydigan, yangilik taklif qilgani uchun qo‘llab-quvvatlanadigan muhitda ijodkorlik tezroq rivojlanadi. O‘qituvchining rag‘batlantiruvchi munosabati, hurmat va ishonchga asoslangan muloqoti talabaning ichki motivatsiyasini oshiradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish – bu shunchaki ijodiy topshiriqlar berish emas, balki butun pedagogik jarayonni yangicha tashkil etish demakdir. Talabalarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, tanqidiy yondashishga va g‘oyalarni erkin ifoda etishga yo‘naltirish orqali ta’lim samaradorligi oshadi hamda jamiyat uchun raqobatbardosh, tashabbuskor va innovatsion fikrlaydigan kadrlar yetishib chiqadi [3].

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, yangi o‘quv dasturlari va pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonini faollashtirish, talabalarni ilmiy-ijodiy izlanishlarga jalb etish hamda ularning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun muhim sharoit yaratadi.

Shunday qilib, talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, balki jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, innovatsion taraqqiyotga xizmat qiluvchi yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi [4].

Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari sohasida keng o‘rganilayotgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativ tafakkur – shaxsning o‘z bilim va tajribalarini yangicha shaklda qo‘llay olish, noodatiy yechimlar topish hamda muammoli vaziyatlarda ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi murakkab psixologik-pedagogik jarayondir.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida J. Guilford, E. Torrance, G. Wallas va A. Osbornlarning ishlari kreativ tafakkurning nazariy asoslarini belgilab bergan. Ularning fikricha, kreativlik inson tafakkurining yuqori darajadagi kognitiv faoliyatidir va u divergent fikrlash, tahliliy yondashuv

hamda fantaziya jarayonlari orqali namoyon bo‘ladi. Mahalliy va rus olimlari B.Ziyomuhamedov, A. Jalolov, L.S. Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn hamda A.N. Leontyev kabi tadqiqotchilar esa shaxsning ijodiy salohiyati, faoliyat motivatsiyasi va ta’lim muhitining psixologik omillariga alohida e’tibor qaratganlar [5].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, “Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim”konsepsiyasi, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” va “Ta’lim

to‘g‘risida”gi Qonunlarda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishning zarurligi ta’kidlanadi.

Tadqiqot davomida nazariy tahlil, kuzatish, so‘rovnoma, tajriba-sinov ishlari, hamda natijalarni statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Bu usullar orqali talabalar kreativ fikrlash darajasi, unga ta’sir etuvchi omillar hamda pedagogik sharoitlarning samaradorligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda, shuningdek, ularning mustaqil fikrlash va muammolarga yangicha yondashish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘tkazilgan so‘rovnomalar, kuzatuv va tajriba-sinov ishlarining natijalari shuni tasdiqladiki, ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish talabalarning ijodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Aniqlanishicha, kreativ fikrlashni rivojlantirishda motivatsion muhit va o‘qituvchi faoliyatining interfaolligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talabalarga mustaqil tahlil, bahsmunozara, loyiha yaratish va amaliy vaziyatlarni hal etish imkoniyatlarini berish ularning fikrlash elastikligini va ijodiy yondashuvini kuchaytiradi. Shuningdek, ta’lim muhitida ijodiy erkinlik, fikrlar xilma-xilligiga hurmat va muloqot madaniyatini shakllantirish o‘quvchi shaxsining kognitiv va emotsional o‘sishini ta’minlaydi [6].

Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat – kreativ fikrlash faqat alohida darslarda emas, balki barcha fanlar bo‘yicha o‘qitish jarayonining uzviy tarkibiy qismi bo‘lishi lozim. Ya’ni, har bir fan talabaning muammoni hal qilish, tahlil qilish, yangicha g‘oya ilgari surish va xulosaga kelish qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Shu ma’noda, fanlararo integratsiya kreativ tafakkurni rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri sifatida o‘zini oqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, kreativ fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi pedagogik sharoitlar zarur: innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan tizimli foydalanish; talabalarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish; o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlikka asoslangan ta’limiy muhit yaratish; psixologik iqlimni ijobiy va erkin fikrlashga yo‘naltirish; har bir talabaning individual qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olish. Muhokama davomida aniqlanganidek, kreativ fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchi shaxsining innovatsion madaniyati, kommunikativ kompetensiyasi va didaktik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘z faoliyatida faqat bilim beruvchi emas, balki talabalarning ijodiy tafakkurini yo‘naltiruvchi, motivatsion rag‘batlantiruvchi va hamkorlikni tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Umuman olganda, olingan natijalar kreativ fikrlashni rivojlantirish ta’limning sifat va mazmunini chuqurlashtirish, talabalarning shaxsiy va intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini berishini ko‘rsatdi. Bu esa, zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, yangilik yaratishga qodir, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalar tafakkurini kreativ yo‘nalishda rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biridir. Kreativ fikrlash – bu nafaqat ijodiy yondashuv, balki muammolarga yangicha qarash, mavjud bilimlarni yangi kontekstda qo‘llay olish va original g‘oyalar yaratish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Shu boisdan, oliy ta’lim tizimida talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish o‘quv jarayonining mazmuni, metodlari va texnologiyalarini yangilashni talab etadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda bir qator omillar – motivatsion muhit, o‘qituvchining innovatsion faoliyati, fanlararo integratsiya, interfaol o‘qitish metodlari hamda mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi pedagogik yondashuvlar – hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘quv jarayonida ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlarni hal etish mashg‘ulotlari va tanqidiy tahlil mashqlari orqali talabalar tafakkurini faol, elastik va samarali rivojlantirish mumkin.

Shuningdek, kreativ fikrlashni shakllantirishda ta’lim muhitining psixologik iqlimi ham muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ochiq muloqot, o‘zaro ishonch va erkin fikr bildirish imkoniyatlari talabalar ijodiy salohiyatining yuzaga chiqishiga yordam beradi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan empirik kuzatuvlar, diagnostik testlar va psixologik so‘rovnomalar talabalarning ijodiy tafakkur darajasiga o‘qitish metodlari, ta’lim muhitining psixologik iqlimi hamda motivatsion omillar sezilarli darajada ta’sir etishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, interfaol o‘qitish texnologiyalari (muammoli ta’lim, klaster, “aqliy hujum”, debat, loyiha metodi, gamifikatsiya elementlari) talabalarda divergent tafakkur, analitik refleksiya va assotsiativ fikrlashni kuchaytiruvchi omil sifatida o‘zini oqladi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlanishicha, kreativ fikrlashni shakllantirish uchun avvalo ta’lim muhitining ijtimoiy-psixologik komponentlari – ya’ni o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat, erkin fikrlash imkoniyati va ijobiy emotsional fon muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, talabalarning metakognitiv ko‘nikmalarini (o‘z fikr jarayonini tahlil qilish, baholash, va qayta yo‘naltirish qobiliyati) rivojlantirish ham ijodiy tafakkur uchun asosiy shartlardan biri sifatida qaraladi. Muhim ilmiy jihatlardan biri shundaki, kreativ fikrlashni rivojlantirish – bu faqat aqliy jarayon emas, balki psixologik-motivatsion, ijtimoiy-kommunikativ va aksiologik tizimni ham qamrab oluvchi murakkab psixopedagogik hodisadir. Shu boisdan, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi omillar kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur:

1. Didaktik omillar – o‘quv jarayonini muammoli va izlanishga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish, bilimlarni algoritmik emas, balki refleksiv tarzda o‘zlashtirishni rag‘batlantirish
2. Psixologik omillar – talabalarning o‘z-o‘ziga ishonchi, ijodiy tashabbusi va o‘zini namoyon etish ehtiyojini qo‘llab-quvvatlash;
3. Ijtimoiy omillar – o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, o‘quv jamoasida sog‘lom kommunikativ muhitni shakllantirish;
4. Texnologik omillar – raqamli ta’lim resurslari, media vositalari va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalaridan foydalanish orqali ijodiy faoliyatni kengaytirish;
5. Aksiologik omillar – ta’lim jarayonida qadriyatga asoslangan yondashuvni tatbiq etish, shaxsning estetik va ma’naviy tafakkurini rivojlantirish[8].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchining pedagogik innovatsion kompetensiyasi, kommunikativ madaniyati va refleksiv faoliyati asosiy determinantlar sirasiga kiradi. O‘qituvchi zamonaviy sharoitda nafaqat bilim manbai, balki kreativ fasilitator, motivatsion lider va intellektual yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish – pedagogik jarayonning murakkab, tizimli va izchil yondashuvni talab etadigan, ammo nihoyatda muhim yo‘nalishidir. Bu jarayon nafaqat alohida dars yoki metod bilan, balki ta’limning mazmuni, shakli va usullarini yangilash, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Kreativ fikrlashni shakllantirish uzluksiz, bosqichma-bosqich va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni talab qiladi.

Kreativ tafakkurga ega talaba mavjud bilimlarni shunchaki takrorlamaydi, balki ularni tahlil qiladi, qayta ishlaydi, yangicha yondashuvlar asosida qo‘llaydi hamda muammolarga noodatiy, samarali yechimlar taklif etadi. Bunday shaxs tez o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha oladi, tashabbuskor bo‘ladi va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan cho‘chimaydi. Natijada, kreativ fikrlovchi mutaxassis jamiyat taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Shuningdek, kreativ fikrlashni rivojlantirish jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar yaratilishiga zamin hozirlash bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki yangilik yaratish, mavjud muammolarga samarali yechim topish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqish aynan ijodiy va mustaqil fikrlaydigan kadrlar orqali amalga oshadi.

Kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalash orqali biz nafaqat yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassisni, balki mustaqil qaror qabul qila oladigan, yangilikka ochiq, ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan, tanqidiy va tahliliy fikrlashga ega insonni shakllantiramiz. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Shu bois, mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni kengaytirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan kompleks va innovatsion yondashuvgina kelajak avlodning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisherov, A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti.2021. – B. 125.

2. Guilford, J. P. (1967). The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill. 1967. – P. 102-103.

3. Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. – Princeton: Personnel Press. 1974. – P. 96.

4. Runco, M. A., & Acar, S. Divergent Thinking as an Indicator of Creative Potential. Creativity Research Journal, 2012. 24(1), 66–75.

5. Amabile, T. M. Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. – Boulder, CO: Westview Press.1996. – P. 28-29.

6. Begmatov, A., & Qodirova, M. Pedagogik innovatsiyalar va ularning ta’lim tizimidagi o‘rni. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2020. B. 216.

7. Sternberg, R. J. Wisdom, Intelligence, and Creativity Synthesized. – Cambridge University Press. 2003, – P. 56-57

8. Ziyayeva, G. (2019). Talabalarda mustaqil fikrlash va kreativ tafakkurni shakllantirishning psixologik xususiyatlari. – “Ta’lim va innovatsiyalar” ilmiy jurnali, №3, – B. 45–50.